



O'ZBEKISTONDA QAYTA SUG'URTALASHNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI, MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH YO'LLARI

Kamilov Baxramjon Umarkjonovich

"O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati "Sug'urta maktabi" direktori

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 1 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss1/a4	Mazkur tadqiqot ishimizda respublika sug'urta bozorida qayta sug'urtalash ishlaridagi muammolar tahlili, rivojlantirish istiqbollari "O'zbekinvest" EISK AJ misolida atroflicha bayon etilgan. O'zbekiston Respublikasida qayta sug'urtalash faoliyatini yaxshilash va sug'urtalovchilar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtadan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan taklif, tavsiya va xulosalar ishlab chiqilgan. <i>sug'urta, sug'urta bozori, qayta sug'urta, kapitallashuv darajasi, zarar, qayta sug'urtalash shartnomasi.</i>
KEYWORDS	

Kirish

O'zbekistonda bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi davrda jamiyatning va iqtisodiyotning turli sohalarida barqarorligi va rivojlanishini ta'minlashda sug'urta va qayta sug'urtaning zarurligi namoyon bo'lmoqda va ahamiyati ortib bormoqda. Respublikamiz sug'urta va qayta sug'urta bozori davlat yaratib bergan imkoniyatlardan foydalangan xolda keng ko'lamda shakllanib, rivojlanib bormoqda.

Sug'urta faoliyati moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismidir. Bir tomondan, sug'urta sohasi iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash orqali iqtisodiyotning barqaror taraqqiyotida asosiy omillardan biri hisoblansa, ikkinchi tomondan, sug'urta sohasi iqtisodiyotga salmoqli hajmdagi investitsiyalarni kiritishi bilan ajralib turadi. Ta'kidlash joizki, sug'urta munosabatlari uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, hozirgi kunga kelib iqtisodiyotda katta o'rinni egallagan.

Qayta sug'urta sug'urtaning mustaqil tarmog'i va sug'urtalovchilarni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan katta hajmdagi risklardan himoya qiladi. Shuningdek, qayta sug'urta xalqaro biznes xisoblanadi va risklarni jahon sug'urta bozorida ikkilamchi taqsimlaydi.

Jahon iqtisodiyotida COVID 19 pandemiyasi natijasida yuz bergan bir qator salbiy oqibatlar "2020 yilda global iqtisodiyot hajmining 3,4 foizga qisqarishiga olib kiyelgandi". Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra "2021 yilga kelib jahon iqtisodiyotida sezilarli jonlanish kuzatilib, iqtisodiyotning o'sish ko'rsatkichi 5,5 foizni tashkil qiladi, lyekin pandemiyani keltirib chiqargan virus yangi shtammlarining paydo bo'lishi hamda mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi byudjet-moliya dasturlarining nihoyasiga yetishi natijasida 2022 yilda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi 4,1 foizgacha pasayishi tahmin qilinmoqda". Shu o'rinda qayd etish lozimki, dunyodagi pandemik vaziyat iqtisodiyotda mavjud bo'lgan va yangi yuzaga kelgan risklardan himoyalaniishga bo'lgan zaruratni oshirdi. Natijada, "2021 yilda dunyoda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab 3,3 foizga oshgan hamda 2022 yilda yana 3,9 foizga oshishi kutilmoqda". Mazkur holat, sug'urta va qayta sug'urta tashkilotlaridan mavjud iqtisodiy sharoitga mos yangi mahsulotlarni ishlab chiqib taklif etishni talab qilmoqda. Shu sababli, global darajada sug'urtalash va qayta sug'urtalash mexanizmlarini takomillashtirish, sug'urta risklarini

baholash samaradorligini oshiruvchi yangi instrumentlarni yaratish, ko'plab davlatlarda kuzatilayotgan inflyasiya va shu kabi makroiqtisodiy muammolar yuzaga kelayotgan bir vaqtda sug'urta risklarini boshqarish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.[1]

Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Sel i metody issledovaniya). Qayta sug'urtalashning mohiyati, hozirgi holati va mavjud muammolarini tahlil qilish orqali ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotda tizimli-tarkibiy, funksional, solishtirma tahlil, guruhlash, induksiya va dyeduksiya, analiz va sintyez usullaridan keng foydalanilgan. Bu o'z navbatida, mamlakatda qayta sug'urta muammolarini tahlil qilish va ularning yechimini ishlab chiqish imkonini byerdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results, Analiz i rezultaty.). Xalqaro amaliyotda risklarni qabul qilish va qayta sug'urtaga byerish borasida katta tajriba to'plangan. Bugungi kunda qayta sug'urtalashning ellikdan ortiq shakllari ishlab chiqilgan bo'lib, iqtisodiyotda qayta sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni to'la qanoatlantirib kelmoqda. Biroq, pandemiyadan keyingi davrda jahon iqtisodiyotida yuz bergan kyeskin o'zgarishlar ayniqsa qayta sug'urtalash mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni hamda ularni mavjud yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashtirishni taqozoetmoqda. Xususan, muqobil qayta sug'urtalash mexanizmlarini shakllantirish, global darajada har bir risk turi bo'yicha ehtimollik darajasini aniqlash, sug'urta va qayta sug'urta operatsiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiruvchi tizimlarni yaratish orqali qayta sug'urtalash tizimining samaradorligini oshirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.



1-расм.Ўзбекистонда суғурта мукофотлари ва суғурта қопламалари ҳажмининг динамикаси (млрд. сўм)

O'zbekistonda pandyemiyaning iqtisodiyotga ta'siri "2020 yilda o'sish sur'atining 1,6 foizgacha pasayishida namoён bo'ldi". Bu o'z navbatida "sug'urta bozori hajmining 2,3 trln. so'mdan 2,2 trln. so'mgacha qisqarishiga olib keldi". Qayta sug'urtalash bo'yicha operatsiyalarning ulushi esa "2016 yil ko'rsatkichlariga nisbatan qariyb 2 baravarga" qisqarib ketgan. Shu bois bugungi kunda O'zbekistonda qayta sug'urtalash mexanizmlarini takomillashtirish va ulardan kyeng foydalanishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. [2]

Shu bilan birgalikda yildan-yilga sug'urtaning iqtisodiyotdagi o'rni ortib, sug'urta qoplamalarining ham hajmlari ortib bormoqda. Rivojlanayotgan sug'urta bozori sharoitida qayta sug'urta xizmatlarining ahamiyati ortib, ularga bo'lgan talab tobora oshib boradi. Ta'kidlash joizki, hozir O'zbekiston sug'urta tashkilotlari xalqaro hamda milliy

Hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urtalash munosabatlari o'zaro kompaniyalar o'rtasida ham, chyet el qayta sug'urtalovchi kompaniyalar bilan ham amalga oshirilmoqda.

Oxirgi yillarda O'zbekiston sug'urta bozori ko'satkichlarining o'sish sur'atlari jadallashganini kuzatish mumkin. Ushbu dinamik o'sish sur'atlari mamlakatda olib borilayotgan islohotlar natijasida iqtisodiyotning o'sishi hisobiga ta'minlanmoqda. Masalan, 2018 yil yakunlariga ko'ra sug'urta bozori bo'yicha yalpi sug'urta mukofoti hajmi 1,6 trln. so'mga yetdi va o'tgan yilgi ko'rsatkichdan 76,3 foizga ortiqroqni tashkil etdi (1-rasmga qarang).

Shu bilan birgalikda yildan-yilga sug'urtaning iqtisodiyotdagi o'rni ortib, sug'urta qoplamalarining ham hajmlari ortib bormoqda. Rivojlanayotgan sug'urta bozori sharoitida qayta sug'urta xizmatlarining ahamiyati ortib, ularga bo'lgan talab tobora oshib boradi. Ta'kidlash



2-расм.Қайта суғуртага берилган ва олинган суғурта

мукофотлари ҳажмининг ўзгариши (млрд. сўм)

bozorlarda qayta sug'urtalash mexanizmlaridan samarali foydalanib kelishmoqda. Milliy bozorda qayta sug'urtalash xizmatlarini ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan sug'urta tashkilotlari milliy sug'urta tashkilotlaridan risklarni o'z sig'im imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qayta sug'urtalashga qabul qilib kelmoqdalar. Bundan tashqari milliy sug'urta bozorimizda aviasiya sug'urtasi, enerygetik risklar va boshqa shu kabi yirik risklarning mavjudligi milliy sug'urta tashkilotlari tomonidan xorij sug'urta sig'imlaridan foydalanish zaruratini kyeltirib chiqarmoqda. Bu mazkur turdagi risklarni sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyati va barqarorligini ta'minlashning birdan-bir yo'li hisoblanadi. Shu bilan birgalikda mamlakatimizda ancha yillardan buyon sug'urtalovchilarning moliyaviy salohiyatini oshirish siyosati olib borilmoqda.[3]

joizki, hozir O'zbekiston sug'urta tashkilotlari xalqaro hamda milliy bozorlarda qayta sug'urtalash mexanizmlaridan samarali foydalanib kelishmoqda. Milliy bozorda qayta sug'urtalash xizmatlarini ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan sug'urta tashkilotlari milliy sug'urta tashkilotlaridan risklarni o'z sig'im imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qayta sug'urtalashga qabul qilib kelmoqdalar.[4]

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020 yilda chiquvchi qayta sug'urtalash munosabatlari sezilarli darajada faollashgan. 2020 yil davomida 277,5 mlrd. so'm miqdoridagi sug'urta mukofotlari sug'urta tashkilotlari tomonidan qayta sug'urtaga byerilgan (2-rasmga qarang).

O'tgan byesh yillik muddatda mazkur ko'rsatkich eng yuqori bo'lib,



3-расм. Қайта сугуртага берилган ва олинган сугурта мукофотларининг бозордаги улуши ўзгаришлари.

o'tgan yilga nisbatan 65,9 foizga ortiqdir.

Chiquvchi qayta sug'urtadan farqli ravishda oxirgi ikki yilda kiruvchi qayta sug'urtalash operatsiyalarining hajmi o'sish tendentsiyasini namoyish qilgan. Agar 2019 yilda O'zbekiston sug'urta tashkilotlari qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha 65,2 mlrd. so'm miqdorida mukofotlarni qabul qilib olgan bo'lsalar, 2020 yilda ushbu ko'rsatkich 62,7 mlrd. so'mga oshib 127,9 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chiquvchi qayta sug'urta bo'yicha mukofotlarining tez sur'atlarda ortib borishi, qayta sug'urtaga berilgan mukofotlarining bozor bo'yicha sug'urta mukofotlaridagi ulushining yildan-yilga qisqarib borishini to'xtata olmadi. Mazkur tendentsiya 2016 yildan buyon davom kuzatilmogda (3-rasmga qarang). Faqatgina 2020 yilga kelib ushbu ko'rsatkich o'zining tendentsiyasini o'zgartirib o'tgan yilga nisbatan o'sgan.

Ushbu holat sug'urta tashkilotlari yildan-yilga o'zlarida saqlab qolinadigan mukofotlar ulushining nisbatini oshirib kelayotganliklaridan dalolat beradi. Bu albatta, sug'urta tashkilotlarining kapitallashuv darajasining va majburiyatlarni qabul qilish sig'imlarining ortganligi bilan bog'liqdir. 2016 yildan boshlab kiruvchi qayta sug'urtalash bo'yicha ham mukofotlar ulushi qisqarib borgan. 2016 yilda kiruvchi qayta sug'urta mukofotlarining umumiy bozor dagi ulushi 10,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda mazkur ko'rsatkich 2,8 foizgacha pasaygan.

2020 yilda mazkur ko'rsatkich o'sishiga erishilgan bo'lsada, bu

dalolat beradi.


2020 yilda xorijdan qayta sug'urta mukofotlarining olinishi O'zbekiston sug'urta tashkilotlariga xalqaro qayta sug'urta bozori ishtirokchilari tomonidan bildirilayotgan ishonchning ortib borayotganligidan dalolat beradi.[5]

Xorijga chiquvchi qayta sug'urta operatsiyalari hajmlarini davlatlar kesimida ko'radigan bo'lsak, 2020 yil yakunlariga ko'ra chiquvchi qayta sug'urta mukofotlarining katta qismi Buyuk Britaniyaga to'g'ri kiyelgan (4-rasmga qarang). Qayd etish kerakki, Buyuk Britaniyaga qayta sug'urtaga berilgan mukofotlarning 42,0 foizi to'g'ri kiyelgan. Mazkur holat Buyuk Britaniya Lloyds xalqaro qayta sug'urta bozorining mavjudligi va dunyo bo'yicha aksariyat katta hajmdagi risklarning ushbu Lloyds bozori orqali dunyo qayta sug'urtalovchilari o'rtasida taqsimlanishi bilan bog'liqdir.[6]

Chiquvchi qayta sug'urta mukofotlarining 15,0 foizi Xitoyga va 8,0 foizi Germaniyaga to'g'ri kelgan. Demak, ushbu uchta davlat sug'urt tashkilotlari O'zbekiston sug'urta bozorining qayta sug'urta bo'yicha asosiy hamkorlari hisoblanadi. Xorijga chiquvchi qayta sug'urta mukofotlarining 65,0 foizi ushbu uchta davlat sug'urta tashkilotlariga berilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorining yetakchi sug'urta tashkilotlaridan biri bo'lgan "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati ham qayta sug'urtalash bo'yicha

17%



4-расм. Ўзбекистондан чиқувчи қайта сугуртада чет давлатларнинг улушлари (2018 йил)

2016 yil ko'rsatkichi darajasidan hamon qariyb ikki baravarga past bo'lgan. Fikrimizcha ushbu holat mamlakatimizda umuman qayta sug'urta operatsiyalarining umumiy bozordagi ulushining qisqarishi bilan bog'liqdir. Ikkinchi tomondan, ushbu holat mamlakatimiz sug'urta tashkilotlari xorijiy bozordan majburiyatlarni qayta sug'urtaga qabul qilish bo'yicha hamon bozor sig'imidan to'liq foydalanmayotganlaridan

faoliyatini yaxshilash borasida bir qator ishlarni amalga oshirmogda.

“O'zbekinvest” EISK AJ tomonidan 2017-2021-yillarda qayta

- mamlakatda qayta sug'urta bilan professional ravishda



5-расм. “Ўзбекинвест”ЭИСК АЖ томонидан 2017-2021 йилларда қайта суг'уртага берилган ва қайта суг'уртага қабул қилиб олинган суг'урта мукوفотлари динамикаси. (млн. сўм)

sug'urta bo'yicha ko'satkichlarning o'sish sur'atlari jadallashganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu dinamik o'sish sur'atlari Kompaniyada qayta sug'urtalash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida ko'rsatkichlarning o'sishi ta'minlangan.

Kompaniya tomonidan 2017-yilda qayta sug'urtaga qabul qilingan sug'urta mukofotlari miqdori 9,1 mlrd.so'mni tashkil etga bo'lsa bu ko'rsatkich 2021-yilda 216,5 mlrd.so'mni tashkil etgan.

“O'zbekinvest” EISK AJ tomonidan 2017-yilda qayta sug'urtaga qabul qilib olingan sug'urta javobgarligi 13,4 trln. so'm bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 35,6 trln.so'mni tashkil etgan.

“O'zbekinvest” EISK AJ tomonidan 2017-yilda xorijiy davlatlar sug'urta tashkilotlariga qayta sug'urtaga berilgan sug'urta javobgarligi 71,5 trln. so'm bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-yilga kelib 78,6 trln.so'mni tashkil etgan.[7]

Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tishimiz joyizki, “O'zbekinvest”

EISK AJ bugungi kunda milliy moliya bozoridagi “Barqaror” prognozi bilan “VV” darajasidagi barqarorlik moliyaviy reytingiga ega bo'lgan birinchi kompaniya bo'ldi.2020-yil yakunlari bo'yicha “A.M.Best Company” Xalqaro reyting agentligi (AQSH) tomonidan “O'zbekinvest”

EISK AJga kredit reytingi berilgan.

Kompaniya portfelidagi xalqaro sug'urtaning ulushi 3 foizdan 37 foizgacha o'sgan.

Shu bilan birga xizmatlar eksporti geografiyasi kengaytirildi va 35 ta davlatlardan turli qaltiliklar qabul qilinib, boshqa tan olingan sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalari hamda brokerlari bilan qayta sug'urtalash bo'yicha 271 ta shartnoma imzolangan.

2020-yil davomida qayta sug'urtalash uchun qabul qilingan 7 ta shartnoma bo'yicha kompaniya tomonidan 205,3 ming AQSH dollari miqdorida sug'urta tovonlari to'lab berilgan.

Bu o'z navbatida Kompaniyaning qayta sug'urtalash faoliyatini yaxshilashda hamda xorijiy qayta sug'urtalash tashkilotlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik bitimlarini tuzishga yaqindan yordam bermoqda.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan qayta sug'urta bozori tahlili asosida shuni qayd etishimiz mumkinki, mamlakatimizda ushbu sohaning samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar ham mavjud, xususan:

- mamlakatda qayta sug'urta faoliyatining alohida faoliyat turi sifatida to'laqonli ajratilmaganligi;

shug'ullanadigan qayta sug'urta tashkilotining mavjud emasligi;

- O'zbekiston sug'urta va qayta sug'urta bozori sig'irlari hajmining o'ta pastligi va horijdan risklarni qayta sug'urtaga qabul qilish imkoniyatlarining cheklanganligi;

- mamlakatimizda qayta sug'urtalovchi kompaniyalar sonining kamligi va borlarining ham moliyaviy imkoniyatlari yuqori emasligi sababli qayta sug'urta mukofotlarining juda kam qismi mamlakatda olib qolinib, katta qismi xorijiy kompaniyalarga o'tkazib berilayotganligi;

- milliy sug'urta bozorida qayta sug'urtalovchi kompaniyalar sonining kamligi qayta sug'urta bozorida monopoliyani yuzaga keltirayotganligi va natijada qayta sug'urtalash mukofotlarining milliy bozordagi stavkasi balandligi sababli ehtiyoj bo'lmaganda xam chetga qayta sug'urtalashni amalga oshirilayotganligi;

- qayta sug'urtalash sohasi bo'yicha malakali kadrlarni yetishmasligi.

Milliy qayta sug'urta bozorini takomillashtirish va yuqoridagi mavjud muammolarni hal etish yuzasidan taklif va tavsiyalarni bildirmoqchimiz:

1. Xalqaro xamkorlikni yanada kuchaytirish va kadrlarni xorij kompaniyalari bilan tajriba almashinishini samarali yo'lga qo'yish;

2. Qayta sug'urta sohasini to'liq qamrab oladigan “Qayta sug'urtalash faoliyati to'g'risda” qonun loyihasini ishlab chiqish. Qonun xalqaro talablarga to'liq mos keladigan bo'lishi lozim.Ushbu vazifani bajarilishi qayta sug'urta sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini oladi va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan sug'urta qallobligini ma'lum darajada cheklaydi;

3. Milliy qayta sug'urta tashkilotini tashkil etish. Bu o'z navbatida sug'urta mukofotlarini chetga chiqib ketishini oldini olishi mumkin;

4. Mamlakat sug'urtalovchilarining kapitallashuv darajasini ko'tarish orqali xalqaro reytinglarni qo'lga kiritishi va jahon qayta sug'urta bozoriga integratsiyalashuvini tezlashtirish;

5. Milliy qayta sug'urtalovchilari tomonidan xalqaro nufuzli reytinglarni olish bo'yicha ishlarni tashkil etish;

6. Sug'urta sohasini isloh qilish va rivojlantirishda rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, tahlil qilish va qo'llash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish samarali hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan takliflarning amaliyotga tadbiiq etilishi bizning fikrimizcha, milliy qayta sug'urta bozori va undagi operatsiyalarni ma'lum darajada takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

References:

1. Пфайффер. К. "Введение в перестрахование", М.АНКИЛ, 2000.
2. Федоров Т.А. "Страхование в условиях рыночной экономики: принципы и практика. Учебное пособие. Изд-во СПбУЭФ, 2009.
3. Архипов А.П. "Основы страховой деятельности" учебник. Москва Издательство БЕК, 2002.
4. Куликов С.В. Методология страховой науки // Вестник НГУЭУ. – 2008. - №1
5. Шихов А. К. Страховое право: учебное пособие. – М., 2003.
6. Отчет по регулированию и надзору за страховой деятельностью в Республике Узбекистан за 2018 год - 18 с. www.mf.uz
7. <http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi